


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*60211800 – Madaniyatshunoslik bakalavriat ta'lim
yo'nalishining*

MALAKA TALABLARI

Toshkent-2024



ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil "25" iyun dagi 218 – sonli buyrug'i bilan.

JORIY ETILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	Malaka talablarining qo'llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obektlari	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari	5
2.	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	6
3.	Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar	9
4.	Fanlar katalogining tuzilishi	9
	Bibliografik ma'lumotlar	10

1. Umumiy tavsifi

60211800 – Madaniyatshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va sirtqi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil, Sirtqi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 5 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. Malaka talablarining qo'llanilishi.

Malaka talablari **60211800** – Madaniyatshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma'sul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.

60211800 – Madaniyatshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari davlat va nodavlat tashkilotlari, madaniyat va san'at muassasalari xususan, madaniyat boshqarmalari, teatr va konsert-tomosha muassasalari, kinematografiya tashkilotlari, tuman (shahar) madaniyat bo'limlari, madaniyat markazlari, milliy madaniy markazlari, madaniyat va san'at ta'lim muassasalari, kutubxonalar, madaniy meros obyektlari, muzeylar, badiiy galereyalar, ko'rgazma zallari, tarixiy-madaniy qo'riqxonalar, madaniyat va istirohat bog'lari, klub muassasalari, madaniyat saroylari hamda uylari, madaniy-axborot markazlari hamda madaniy-ma'rifiy markazlar, ijodiy uyushmalar, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar, turizm tashkilotlari va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalarda madaniy-ma'rifiy va ijodiy jarayonlarni tashkil etish, faoliyat tizimini yanada takomillashtirish, umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish, madaniyat va san'at sohasida kompleks masalalarni yechish, madaniyat va san'at sohasi faoliyatini tashkil etish va boshqarishga tegishli bo'lgan muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan vositalar, usullar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obektlari:

Davlat va nodavlat tashkilotlari, madaniyat va san'at muassasalari xususan, madaniyat boshqarmalari, teatr va konsert-tomosha muassasalari, kinematografiya tashkilotlari, tuman (shahar) madaniyat bo'limlari, madaniyat markazlari, milliy madaniy markazlari, madaniyat va san'at ta'lim muassasalari, kutubxonalar, madaniy meros obyektlari, muzeylar, badiiy

galereyalar, ko'rgazma zallari, tarixiy-madaniy qo'riqxonalar, madaniyat va istirohat bog'lari, klub muassasalari, madaniyat saroylari hamda uylari, madaniy-axborot markazlari hamda madaniy-ma'rifiy markazlar, ijodiy uyushmalar, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar, turizm tashkilotlari va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalar.

60211800 – Madaniyatshunoslik bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot.*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ijodiy ishlab-chiqarish;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60211800 – Madaniyatshunoslik ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

Respublika va xorijda chop etilgan madaniyat va san'atga oid ilmiy-texnik axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

respublika va xorijda chop etilgan madaniyat tarixi va metodologiyasiga oid ilmiy-texnik axborotlarning manbalarini o'rganish;

kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish;

ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarini bajarish;

ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lim yo'nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlab chiqish, tahlil qilish va olingan malumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

madaniyatshunoslikka oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Tashkiliy-boshqaruv hamda ijodiy-ishlab chiqarish faoliyatida:

madaniyat va san'at muassasalari, ilmiy – tadqiqot muassasalari, shuningdek, tegishli muharririyat, tahririyat, nashriyot, televideniye va radio, madaniyat boshqarmalari, vazirlik boshqarmalarida ishni tashkil etishi va boshqarishi;

madaniyat va san'at sohasi tizimida ijodiy jamoalarni boshqarishni ilmiy va amaliy asosda tashkil qila bilishi;

fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;

dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;
 - turli fikrlilik sharoitida boshqaruv qarorini qabul qilish;
 - birlamchi ishlab chiqarish guruh ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
 - bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
 - xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
 - axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
 - tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
 - yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;
 - ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
 - fikrlar turlicha bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
 - nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
 - bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;
 - mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi;
 - atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
 - sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi;
 - madaniyat tashkilotlari, davlat va nodavlat organlari, viloyat(shahar) madaniyat boshqarmalari, tuman (shahar) madaniyat bo'limlari, madaniyat markazlari, madaniyat va san'at ta'lim muassasalari, kutubxonalar, jamoat tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar, shuningdek boshqa madaniy-ma'rifiy tashkilotlarda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatish;
 - madaniy xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;
 - ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi

lozim.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- San'at asarlari samaradorligini baholash;
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;
- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.-

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, davlat siyosatining dolzarb masalalari bilan bog'liq ijtimoiy muammolarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va usullarini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;

madaniyat va san'at sohasida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

meyoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

ijodiy jarayonni tashkillashtira olish;

madaniyat va san'at muassasalari ish rejalarini ishlab chiqish, nazorat qilish va kerakli hollarda talab darajasiga moslashtirish;

ijodiy jamoalar faoliyatini muvofiqlashtira olish;

madaniy tadbirlar o'tkazishni tashkillashtirish jarayoniga rahbarlik qila olish;

madaniyat va san'at sohasi tizimlari ish holatini doimiy nazorat qilib borish;

tahlillar o'tkazish va kerakli hollarda ularni ish holatini muvofiqlashtirish;

tadbirlarini ishlab chiqish va joriy etish;

madaniy tadbirlarning yangi zamonaviy shakllarini ishlab chiqish va tashkillashtira olish;

noyob talantli, ijodkor, iste'dod egalari faoliyatiga imkoniyat yaratish va targ'ib qila olish;

aholining madaniy dam olishini tashkillashtira olish, nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylash va uni targ'ib qilish kabi ko'nikmalariga ega bo'lish

o'zlashtirgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o'z faoliyatida meyoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarning mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarini anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy meyorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olishi;

o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;

fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;

kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;

patent olish uchun ish meyoriy hujjatlar tayyorlay olishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

milliy ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini og'zaki va yozma bayon etishi, milliy g'oyaning nazariy asoslarni anglagan holda Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiya maqsadlaridan kelib chiqib milliy taraqqiyotdan milliy yuksalish sari g'oyasi bilan mutanosibli tushuntirish;

tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarda foydalana olishi;

shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy meyorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olishi;

o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;

o'z faoliyatida meyoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;

fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqishi va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

ilmiy faoliyati natijalarini xis qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;

kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, uslublarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida xorijiy tillardan birini egallagan bo'lishi;

axborotni to'plash, saqlash, ularga ishloy berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi; o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashuv shakllangan bo'lishi;

madaniyatshunoslikning zamonaviy jarayonlari va sohalarida ijodiy tanqidchilikni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi;

zamon talablaridan kelib chiqib o'z ustida muntazam ishlash, ijodini takomillashtirib borish qobiliyatiga ega bo'lish borasida ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. Tanishuv amaliyoti;
2. O'quv amaliyoti;
3. Ishlab chiqarish amaliyoti;
4. Bitiruv oldi amaliyoti.

4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	5520	184	
1.01	O'zYT 20014	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	FAL 20014	Falsafa	120	4	3
1.03	DIN 20014	Dinshunoslik	120	4	2
1.04	O'z RT 20014	O'zbek (rus) tili	120	4	1,2
1.05	XT 20014	Xorijiy tili	120	4	1,2
1.06	AT 20014	Axborot texnologiyalari	120	4	3,4
1.07	JST 20012	Jismoniy tarbiya va sport	60	2	1
1.08	MAD 200128	Madaniyatshunoslik	840	28	1,2,3,4,5,6,7
1.09	MFTEB200136	Madaniy faoliyatni tashkil etish va boshqarish	1080	36	1,2,3,4,5,6,7
1.10	MTTE 200128	Madaniy tadbirlarni tashkil etish	840	28	1,2,3,4,5,6,7
1.11	MN 20014	Madaniyat nazariyasi	120	4	1,2
1.12	MZM 20018	Madaniyatshunoslikning zamonaviy muammolari	240	8	3,4,5,6
1.13	MO'M 20014	Madaniyatning o'qitish metodikasi	120	4	5,6
1.14	MT 20014	Madaniyat tarixi	120	4	1,2
1.15	MNM 20014	Muloqot va nutq madaniyati	120	4	3,4
1.16	OMM 20018	Ommaviy va media madaniyat	240	8	6,7
1.17	ME 20016	Madaniyat ekologiyasi	180	6	5,6,7
1.18	ME 20014	Madaniyatshunoslikda etnomadaniyat	120	4	5,6
1.19	MSM 20016	O'zbekistonda sayyohlik madaniyati	180	6	5,6,7
1.20	MS 200114	Madaniyat sotsiologiyasi	120	4	3,4
1.21	XMA 20016	Xalqaro madaniy aloqalar	180	6	3,4,5
1.22	O'z A 20014	O'zbek adabiyoti	120	4	1,2
1.23	JA 20014	Jahon adabiyoti	120	4	3,4
2.00		Tanlov fanlar	540	18	4,5,7
		<i>Tanlov fanlar</i>	<i>540</i>	<i>18</i>	<i>4,5,7</i>
<i>Kvalifikatsiya</i>		<i>Madaniyatshunos</i>			
		Jami:	6060	202	
		Malakaviy amaliyot	900	30	(2,4,6,8)
		Bitiruv malakaviy ishi	240	8	8
		Jami:	1140	38	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Madaniyatshunoslik, madaniyat, madaniyat markazlari, mezeylar, madaniyat va istirohat bog'lari, teatr, san'at saroylari, kino, madaniy tadbir, madaniyat va san'at sohasi boshqaruvi, madaniy jarayonlar, madaniy ta'lim, madaniyat tarixi, ma'naviy qadriyatlar, madaniy qadriyatlar, madaniy meros, vorislik, nomoddiy madaniy meros, davlat va nodavlat organlari, madaniyat va san'at muassasalarini boshqarish tizimi, madaniyat va san'at muassasalarda havaskorlik jamoalarini tashkil etish, madaniyat va san'at muassasalarning moliyalashtirilishi, milliy, umuminsoniy, baynalminal, ekologik, etnomadaniyat, etnolingvistik madaniyat, axloqiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ommaviy, tarixiy, falsafiy, milliy o'zlikni anglashning tiklanishi, jahon madaniyati, umumbashariy madaniy muammolari, "ommaviy madaniyat", transformatsion jarayonlar, madaniyat nazariyasi, madaniyatning tarixiy bosqichlari, pedagogik madaniyat, madaniyat sotsiologiyasi, madaniyatning etnik nazariyasi, media madaniyat, sivilizatsiya, texnogen madaniyat, innovatsion madaniyat.